

O'QUVCHILARDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDATIK ASOSLARI

Fayzullayeva Sevinchxon Toxir qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy-amaliy maqolada til o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. O'qituvchining darsdagi faoliyati, interaktiv metodlardan foydalanish, muloqotga asoslangan topshiriqlarning ahamiyati, shuningdek, muallif tomonidan o'tkazilgan tajriba natijalari asosida metodik tavsiyalar beriladi. Shuningdek, maqolada adabiyotlarni batafsil tahlil qilish orqali ushbu mavzuning ahamiyati ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, kommunikativ metodika, interaktiv topshiriq, til o'qitish, lingvodidaktika.

Абстракт: В данной научно-практической статье анализируется проблема формирования и развития устной речи учащихся в процессе обучения языку. Методические рекомендации даны с учетом деятельности учителя на уроке, использования интерактивных методов, значимости коммуникативных заданий, а также результатов авторских экспериментов. В статье также подчеркивается важность данной темы посредством подробного анализа литературы.

Ключевые слова: устная речь, коммуникативная методика, интерактивное задание, обучение языку, лингводидактика.

Abstract: This scientific and practical article analyzes the issue of the formation and development of students' oral speech in the process of language teaching. The importance of the teacher's activities in the lesson, the use of interactive methods, tasks based on dialogue, as well as methodological recommendations based on the results of the author's

experiment are given. The article also emphasizes the importance of this topic through a detailed analysis of the literature.

Key words: oral speech, communicative methodology, interactive task, language teaching, linguistic didactics.

Til insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim vositasi bo‘lib, u fikr almashinushi, madaniyat uzatish va shaxsiy taraqqiyotning negizini tashkil etadi. Ayniqsa, mакtabgacha va maktab ta’limining boshlang‘ich bosqichlarida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchilarining muloqot madaniyati, fikrlash qobiliyati va ijtimoiy faolligi uchun poydevor yaratadi. Lingvodidaktika – bu til o‘qitishning nazariyasi va metodikasi bilan shug‘ullanuvchi fan bo‘lib, u o‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlantirishning ilmiy asoslarini belgilaydi. Tilni faqat grammatik me’yorlarda emas, balki muloqot vositasi sifatida o‘rgatish bugungi kunda zamonaviy ta’limning talabiga aylangan¹. Shuningdek ushbu maqolani yozish jarayonida og‘zaki nutq ko‘nikmalarining ahamiyatiga ham to‘xtalib o’tish maqsadga muvofiqdir. Og‘zaki nutq o‘quvchilarining fikr almashinushi, o‘zini erkin ifoda etish, savol-javoblarga qatnashish, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu ko‘nikmalar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, og‘zaki nutq asosida o‘quvchi o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtiradi, tushunilgan bilimni mustaqil ifoda etishga o‘rganadi.²

Tadqiqotda, albatta, maqsadga intilinadi. Maqsad mazminda o‘z ifodasini topadi. O‘quvchilarining og‘zaki nutqini o‘stirishda interaktiv metodlar, kommunikativ topshiriqlar va rolli o‘yinlarning samaradorligini aniqlash kabilar maqsad qilib belgilandi va mazmuni o‘chib berish uchun harakat qilindi. Ushbu metod va usullarni tatbiq etish uchun tadqiqot obyekti sifatida Toshkent viloyati Bo‘ka tumanidagi umumiyo‘rtta ta’lim mакtabining 7-sinf o‘quvchilari tanlab olindi. Kuzatish, so‘rovnama, nutqiy faoliyatga oid testlar, og‘zaki ifoda mashqlari kabi metodlar tadqiqot metodlari sifatida tanlandi va

¹ Mamayusupova D. H. (2024). *Til va nutq rivoji: boshlang‘ich ta’limda kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish*. PEDAGOGS.

² Suyunova M. A. qizi. (2023). *Boshlang‘ich sinflarda maqol va topishmoqlarni o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini rivojlantirish*.

ulardan foydalanildi. Tajriba ishlari quyidagi bosqichlar asosida amalga oshirildi. Ular quyidagilar:

1. Diagnostik bosqich – boshlang‘ich baholash.
2. Amaliy bosqich – metodik ta’sir (rolli o‘yinlar, dialoglar, hikoyalar, debatlar).
3. Natijaviy bosqich – yakuniy baholash.

Ushbu tajriba maqola mazmunini ochish uchun muhim vazifani bajarib berdi. Tajriba 1 o‘quv yilining 2-choragida o‘tkazildi. 20 nafar 7-sinf o‘quvchisi ishtirok etdi. Diagnostik bosqichda quyidagilar aniqlandi:

Fikr bayon qilishda mustaqillik: 35% → 70%

Grammatik to‘g‘rilik: 40% → 80%

Muloqotga kirishish layoqati: 50% → 85%

Eng yaxshi natijalar “rolli o‘yin” va “vizual hikoya” metodlari qo‘llangan darslarda kuzatildi.

Lingvodidaktik yondashuvlar orasida eng samaralilari bu – kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, xalq og‘zaki ijodi vositalari va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashdir. Endi esa har biriga biroz to‘xtalib, ularning mamunini yoritib o‘tamiz.

Kommunikativ yondashuv o‘quvchiga tilni muloqot vositasi sifatida o‘rgatishni ko‘zda tutadi. Bu yondashuvga ko‘ra, til – grammatika, lug‘at esa yodlash emas, balki mazmunli fikr almashinushi uchun xizmat qilishi lozim . Dars jarayonida real hayotiy vaziyatlar yaratish, rolli o‘yinlar, dialoqlar, suhabatlar orqali o‘quvchilar og‘zaki muloqotga faol jalb etiladi.³

Interfaol metodlar – bu o‘quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiruvchi yondashuvdir. “Aqliy hujum”, “Savatga savol”, “Fikrlar charxi”, “Debat” kabi metodlar

³ Oblaqulova M. X. (2025). *O‘quvchilarda og‘zaki nutqiylar kompetensiyasini shakllantirish (metodik tavsiya)*. Ustozlar uchun.

orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini og‘zaki tarzda bayon qilishga undaladi. Bu metodlar faqat bilim emas, balki nutqiy ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.⁴

Xalq og‘zaki ijodi vositalari, xususan maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va ertaklar o‘quvchilarda og‘zaki nutq boyligini rivojlantirishda beqiyos vositadir. Bu vositalar orqali o‘quvchilar so‘z boyligini oshiradi, ifoda uslubini boyitadi, talaffuz ustida ishlaydi.⁵

Innovatsion texnologiyalar, jumladan audio-vizual vositalar, multimedia dasturlar, interaktiv platformalar orqali o‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlantirishga mo‘ljallangan topshiriq va mashqlarni taqdim etish mumkin. Masalan, dialogli dasturlar, video tahlillar, sun’iy intellekt yordamida avtomatik baholov tizimlari bu borada samaradorlikni oshiradi.⁶

Ushbu yo‘nalishda bir qator o‘zbek va xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan:

- A. Madvaliyev o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda grammatika va leksikani uyg‘unlikda o‘rgatish lozimligini ta’kidlaydi.
- G. Karimova og‘zaki nutqni o‘stirishda kontekstual yondashuv – ya’ni o‘quvchini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirish metodikasini ilgari surgan.
- N. To‘ychiyev metodik tadqiqotlarida o‘quvchilarda muloqotga kirishish layoqatini mustahkamlash uchun situatsion mashqlarni taklif etgan.
- E.I. Passov tilni kommunikativ usulda o‘rgatishni taklif qilib, “Nutq orqali tilni egallash” prinsipini asoslab bergen.
- I.L. Bim bolalarda og‘zaki nutqni bosqichma-bosqich shakllantirish modelini ishlab chiqqan.

⁴ Mamatqulova G. (2024). Interfaol usullar asosida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning lingvodidaktik yo‘nalishlari.

⁵ Olimova N. Q. (2024). *Xalq og‘zaki ijodi vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuzi va nutqini o‘stirish metodikasini takomillashtirish*. Farg‘ona davlat universiteti.

⁶ Raximova G. (2024). *Multimedia vositalaridan foydalanib o‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlantirish*. IMRAS Journal.

- Zamonaviy metodistlar, masalan, Richards, Brown, D. Nunanlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda rolli o‘yinlar, guruhli ishlar va mavzuli suhbatlarning ahamiyatini alohida ko‘rsatadilar. Ushbu ilmiy tadqiqotlar o‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari mavzusida muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari o‘quvchilarda og‘zaki nutqni samarali rivojlantirish uchun darslarda quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

Birinchidan, og‘zaki nutq uchun qulay psixologik muhit yaratilishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarda xatodon qo‘rmasdan gapirishga jur’at uyg‘otmog‘i zarur.

Ikkinchidan, og‘zaki mashqlar tizimli va izchil bo‘lishi kerak. Har bir darsda og‘zaki ifoda qilishga oid topshiriqlar berilishi, o‘quvchilar mustaqil fikrlashga undalishi lozim.

Uchinchidan, o‘quvchining nutqini baholashda faqat grammatik to‘g‘rilik emas, balki mazmun, ohang, talaffuz, ifoda uslubi ham hisobga olinishi kerak.

To‘rtinchidan, turli matnlardan – ertak, hikoya, maqola, intervyu, suhbat – foydalanib, o‘quvchining og‘zaki qayta ifoda qilish, izohlash va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.⁷

Xulosa shuki, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish – ularning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrashi, ijodiy yondashuvlarini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Til o‘qitishda kommunikativ metodlarni qo‘llash, real muloqot vaziyatlarini yaratish, o‘quvchiga ko‘proq erkinlik berish va baholashda ilg‘or shakllardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlantirish lingvodidaktik yondashuvlarga asoslanib olib borilgandagina samarali natija beradi. Bugungi kunda faqat bilim berish emas, balki muloqotga kirishish, fikrni ravon ifoda etish, jamiyatga faol integratsiyalashish ko‘nikmalari ta’limning ustuvor maqsadlaridan biri bo‘lib bormoqda. Shunday ekan, har

⁷ Xolboyeva M. (2023). *Matn asosida og‘zaki qayta hikoya qilish usullarining samaradorligi*. IN-ACADEMY.

bir til darsi o‘quvchining faolligini oshiruvchi, nutqni mustahkamlovchi platformaga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 233 bet.
2. Karimova G. Ona tili darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirish. – Toshkent, 2010. 156 bet.
3. To‘ychiyev N. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning innovatsion yondashuvlari. – 2020. 176 bet.
4. Mamayusupova D. H. (2024). Til va nutq rivoji: boshlang‘ich ta’limda kommunikativ ko‘nikmalarни shakllantirish. PEDAGOGS.
5. Suyunova M. A. qizi. (2023). Boshlang‘ich sinflarda maqol va topishmoqlarni o‘rgatish orqali o‘quvchilar nutqini rivojlantirish.
6. Xolboyeva M. (2023). Matn asosida og‘zaki qayta hikoya qilish usullarining samaradorligi. IN-ACADEMY.
7. Oblaqulova M. X. (2025). O‘quvchilarda og‘zaki nutqiy kompetensiyasini shakllantirish (metodik tavsiya).
8. Mamatqulova G. (2024). Interfaol usullar asosida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning lingvovididaktik yo‘nalishlari.
9. Olimova N. Q. (2024). Xalq og‘zaki ijodi vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuzi va nutqini o‘stirish metodikasini takomillashtirish.
10. Raximova G. (2024). Multimedia vositalaridan foydalanib o‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlantirish. IMRAS Journal.
11. Xolboyeva M. (2023). Matn asosida og‘zaki qayta hikoya qilish usullarining samaradorligi.